QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.135

UDK:8137
ORCID: 0009–0001–0473–2087

NEMIS VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KONSEPT KATEGORIYASINING KOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Atamurodova Dilfuza Toshmurodovna
Qarshi davlat universiteti, f.f.f.d (PhD)
dilfuza_atamurodova@mail.ru, +99891 466–22–10

Annotatsiya. Mazkur maqolada konsept kategoriyasining kognitiv va lingvokulturologik talqinlari nemis va o‘zbek tillari misolida nazariy-qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi konseptga oid ilmiy yondashuvlarning mushtarak va farqli xususiyatlarini aniqlash, konsept hamda leksik ma’no o‘rtasidagi munosabatni izohlash va konseptual sohalarni qiyosiy o‘rganishning integrativ tahliliy asoslarini belgilashdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy, nazariy-qiyosiy, konseptual va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalaniladi. Nemis tilidagi HEIMAT, FAMILIE, LIEBE hamda o‘zbek tilidagi VATAN, OILA, MUHABBAT birliklari bilan bog‘liq konseptual sohalar misolida tarjima muqobilligi konseptual mazmunning to‘liq mos kelishini anglatmasligi asoslanadi. Nazariy tahlil natijasida konseptual sohalarni kognitiv-konseptual, lisoniy-semantik va lingvomadaniy jihatlarning o‘zaro aloqasi asosida o‘rganish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatiladi. Mazkur yondashuv turli tillardagi konseptual sohalarning umumiy va farqli xususiyatlarini tizimli qiyoslash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konseptuallashtirish, madaniy kognitsiya, leksik ma’no, konseptual metafora, nemis tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil.

КОГНИТИВНАЯ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАТЕГОРИИ КОНЦЕПТА В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. В статье рассматриваются когнитивные и лингвокультурологические подходы к интерпретации концепта на примере немецкого и узбекского языков. Цель исследования заключается в выявлении общих и отличительных особенностей теоретических подходов к изучению концепта, определении соотношения между концептом и лексическим значением, а также в обосновании интегративного подхода к сопоставительному анализу концептуальных областей. В исследовании применяются

описательный, теоретико-сопоставительный, концептуальный и лингвокультурологический методы анализа. На примере концептуальных областей, связанных с немецкими лексемами HEIMAT, FAMILIE, LIEBE и узбекскими лексемами VATAN, OILA, MUHABBAT, обосновывается положение о том, что переводная эквивалентность не предполагает полного совпадения концептуального содержания. В результате теоретического анализа определяется целесообразность комплексного рассмотрения концептуальных областей во взаимосвязи когнитивно-концептуального, лексико-семантического и лингвокультурного аспектов. Предлагаемый подход может служить методологической основой для системного сопоставления общих и специфических характеристик концептуальных областей в разных языках.

Ключевые слова: концепт, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, концептуализация, культурная когниция, лексическое значение, концептуальная метафора, немецкий язык, узбекский язык, сопоставительный анализ.

COGNITIVE AND LINGUOCULTUROLOGICAL INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT AS A CATEGORY IN GERMAN AND UZBEK LINGUISTICS

Abstract. This article examines cognitive and linguocultural approaches to the notion of concept through a theoretical and comparative analysis drawing on German and Uzbek. The study aims to identify the similarities and differences between major theoretical interpretations of concepts, clarify the relationship between conceptual content and lexical meaning, and establish an integrative analytical framework for cross-linguistic conceptual research. The study employs descriptive, theoretical-comparative, conceptual, and linguocultural methods of analysis. Drawing on illustrative examples from the conceptual domains associated with the German lexical items HEIMAT, FAMILIE, and LIEBE and their Uzbek counterparts VATAN, OILA, and MUHABBAT, the analysis demonstrates why lexical translation equivalence should not be equated with complete conceptual equivalence. The theoretical findings support an integrative approach that considers cognitive-conceptual, linguistic-semantic, and linguocultural dimensions as interconnected aspects of conceptual analysis. This approach provides a potential methodological framework for systematically examining shared and language-specific characteristics of conceptual domains across German and Uzbek.

Keywords: concept, cognitive linguistics, linguoculturology, conceptualization, cultural cognition, lexical meaning, conceptual metaphor, German language, Uzbek language, comparative analysis.

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda tilni uning ichki strukturaviy munosabatlari asosida tadqiq etuvchi yondashuvlar bilan bir qatorda inson omilini markazga qo‘yuvchi antropotsentrik tadqiqotlarning mavqeyi kuchaydi. Mazkur jarayon tilni nafaqat belgilar tizimi, balki inson tafakkuri, bilish faoliyati, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida o‘rganishga bo‘lgan ilmiy qiziqishni oshirdi. Ushbu nazariy-metodologik tendensiyalar doirasida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya kabi

fanlararo yo‘nalishlar rivojlanib, til birliklarining semantik xususiyatlarini insonning konseptual bilimlari va madaniy tajribasi bilan bog‘liq holda tadqiq etish imkoniyatlari kengaydi.

Mazkur yo‘nalishlarning muhim nazariy kategoriyalaridan biri konsept hisoblanadi. Konsept tilshunoslik bilan bir qatorda falsafa, mantiq, psixologiya va kognitiv fan doirasida ham o‘rganiladigan ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning mohiyati turli ilmiy maktablarda har xil nazariy asoslarda izohlanadi. Xususan, kognitiv yondashuvlarda konsept insonning bilim va tajribasini tashkil etish, borliqni kategoriyalash hamda konseptuallashtirish jarayonlari bilan bog‘liq holda talqin qilinsa, lingvokulturologik tadqiqotlarda uning lisoniy ifodalanishi, madaniy-semantik mazmuni va qadriyatga oid xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Bu yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, balki konseptning o‘zaro aloqador jihatlarini turli tadqiqot nuqtayi nazarlaridan yoritadi.

Til va madaniy kognitsiya munosabatlarini tadqiq etishda F. Sharifian tomonidan rivojlantirilgan *Cultural Linguistics* yondashuvi ham muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvda madaniy konseptuallashtirishlar (*cultural conceptualisations*), jumladan, madaniy sxemalar (*cultural schemas*), madaniy kategoriyalar (*cultural categories*) va madaniy metaforalar (*cultural metaphors*) til birliklarining madaniy-kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish vositalari sifatida qaraladi. Mazkur nazariy qarashlar konseptning individual bilish faoliyati bilan bir qatorda jamoaviy madaniy tajriba orqali shakllanadigan jihatlarini o‘rganish uchun ham metodologik asos yaratadi.

Konsept kategoriyasining turli nazariy talqinlarini qiyosiy o‘rganish, ayniqsa, genealogik va tipologik jihatdan farqlanuvchi tillar materialida muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, nemis va o‘zbek tillari konseptual mazmunning lisoniy ifodalanishi hamda madaniy-semantik xususiyatlarini qiyoslash uchun muayyan tadqiqot imkoniyatlarini taqdim etadi. Jumladan, nemis tilidagi *HEIMAT, FAMILIE, LIEBE, FREIHEIT* hamda o‘zbek tilidagi *VATAN, OILA, MUHABBAT, ERKINLIK* birliklari bilan bog‘liq konseptual sohalarning semantik tuzilishi, obrazli ifodalanishi va qadriyatga oid mazmunini o‘rganish ularning mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bunda mazkur birliklarning lug‘aviy muvofiqligi ularning konseptual mazmuni to‘liq mos kelishini anglatmasligi e’tiborga olinishi lozim.

Kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlarning konsept kategoriyasini izohlashdagi mushtarak hamda farqli jihatlarini aniqlashtirish, ularni qiyosiy tadqiqotda o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash masalasi nazariy-metodologik jihatdan ahamiyatlidir. Shu munosabat bilan ushbu maqolada nemis va o‘zbek tilshunosligida konsept tushunchasining kognitiv hamda lingvokulturologik talqinlarini qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish, mazkur yondashuvlarning o‘zaro munosabatini yoritish va konseptual mazmunni kognitiv-konseptual, lisoniy-semantik hamda lingvomadaniy jihatlarning o‘zaro aloqasi asosida tadqiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish maqsad qilib qo‘yiladi.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kognitiv tilshunoslikda til insonning bilish faoliyati, tafakkuri va tajribasi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida tadqiq etiladi. Mazkur yondashuv til birliklarining semantik

xususiyatlarini borliqni idrok etish, kategoriyalash, konseptuallashtirish va bilimlarni tashkil etish jarayonlari bilan aloqador holda izohlaydi. V. Evans va M. Green (2006) kognitiv tilshunoslikni til va tafakkur munosabatlarini o‘rganuvchi, o‘zaro bog‘liq nazariy yondashuvlarni birlashtirgan ilmiy yo‘nalish sifatida tavsiflaydi. Ularning tadqiqotida kognitiv semantika, kategoriyalash, konseptual metafora, konseptual integratsiya va kognitiv grammatikaning nazariy asoslari yoritilgan. Bu konseptni alohida leksemaning ma’nosi bilan tenglashtirmasdan, inson bilim va tajribasini konseptual tashkil etish jarayonlari doirasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Konseptual tuzilmalarning lisoniy ifodalanishini o‘rganishda G. Lakoff va M. Johnson (1980) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, metafora mavhum tushunchalarni boshqa, aniqroq tushunchalar orqali anglash imkonini beradi. Masalan, HAYOT — SAYOHAT va MUHABBAT — SAYOHAT metaforalari hayot va muhabbatning yo‘l, maqsad hamda to‘siqlar bilan bog‘liq holda tasvirlanishini ko‘rsatadi. Bunday metaforalarning turli tillardagi ifodalanishi esa empirik materiallar asosida o‘rganiladi.

Konseptual metaforaning madaniy xususiyatlarini tadqiq etishda Z. Kövecsesning *Metaphor in Culture: Universality and Variation* (2005) asari muhim nazariy manba hisoblanadi. Olim metaforik konseptuallashtirishda insonlarning umumiy jismoniy va tajribaviy xususiyatlariga asoslangan o‘xshashliklar bilan bir qatorda madaniyatlararo va madaniyat ichidagi variativlik mavjudligini ko‘rsatadi. Tarixiy tajriba, ijtimoiy muhit va madaniy an’analar metaforik modellarning tanlanishi hamda qo‘llanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur qarashlar nemis va o‘zbek tillaridagi konseptlarni qiyoslashda universal kognitiv asoslar bilan madaniy jihatdan farqlanuvchi ifodalarni birgalikda hisobga olish zarurligini belgilaydi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda konseptning lisoniy ifodalanishi, madaniy-semantik mazmuni, qadriyatga oid xususiyatlari hamda muayyan lingvomadaniy hamjamiyatning tarixiy va ijtimoiy tajribasi bilan aloqasi muhim o‘rin tutadi. A. Wierzbicka *Understanding Cultures through Their Key Words* (1997) asarida madaniy ahamiyatga ega kalit so‘zlar orqali jamiyatga xos qadriyatlar va konseptual tasavvurlarni o‘rganish imkoniyatlarini asoslaydi. Olim tabiiy semantik metatil (*Natural Semantic Metalanguage*) yondashuvi orqali turli tillardagi madaniy mazmunni semantik jihatdan izohlash va qiyoslashga intiladi. Ushbu yondashuv konseptual mazmunni faqat lug‘aviy muqobillik asosida emas, balki uning semantik tarkibi va madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi.

Til va madaniyat munosabatlarini yoritishda F. Sharifian tomonidan ishlab chiqilgan *Cultural Linguistics* yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Sharifian (2017) til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda madaniy konseptlarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvda madaniy sxemalar, madaniy kategoriyalar va madaniy metaforalar xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasi hamda dunyoqarashini tahlil qilish vositalari sifatida qaraladi. Lingvokulturologiya va *Cultural Linguistics* o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, nazariy asoslari va tahlil usullari bilan farqlanadi. Ularni uyg‘unlashtirish konseptlarning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

O‘zbek tilshunosligida kognitiv yondashuvning nazariy asoslarini yoritishda Sh. Safarovning *Kognitiv tilshunoslik* (2006) risolasi muhim manbalardan biridir. Unda til va tafakkur munosabatlari, lisoniy faoliyatning kognitiv xususiyatlari hamda bilish jarayonlari bilan bog‘liq metodologik masalalar yoritilgan. Nemis va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganishga oid D. Hayotovaning «Vatan» konsepti haqidagi tadqiqotida esa nemis tilidagi *Heimat* va *Vaterland* birliklarining etimologik, semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlari muhokama qilingan. Mazkur tadqiqotlar konseptual sohalarni qiyoslashda nazariy talqinlar, lisoniy dalillar va madaniy-semantik izohlar o‘rtasidagi aloqadorlikni hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi. Biroq bir konseptga oid xulosalarni boshqa konseptual sohalarga bevosita tatbiq etish metodologik jihatdan asosli emas.

Mazkur tadqiqot nazariy-qiyosiy xususiyatga ega bo‘lib, uning manbaviy asosini kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konseptual metafora nazariyasi va madaniy-kognitiv yondashuvlarga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Tadqiqotda **tavsifiy, nazariy-qiyosiy va tanqidiy tahlil metodlari** asosiy o‘rin tutadi. Tavsifiy metod konsept kategoriyasining turli ilmiy maktablardagi talqinlarini yoritishga, nazariy-qiyosiy metod ularning mushtarak va farqli jihatlarini aniqlashga, tanqidiy tahlil esa mavjud nazariyalarning metodologik imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Shuningdek, HEIMAT/VATAN, FAMILIE/OILA va LIEBE/MUHABBAT konseptual sohalariga oid tanlangan lisoniy misollarni izohlashda definitsion, kontekstual, lingvokulturologik va konseptual metafora tahlili elementlaridan foydalaniladi. Definitsion tahlil leksik birliklarning lug‘aviy-semantik xususiyatlarini, kontekstual tahlil ularning nutqiy qo‘llanishini, lingvokulturologik tahlil esa madaniy konnotatsiyalar va aksiologik mazmunni aniqlashga yo‘naltiriladi. Konseptual metafora tahlilida manba va maqsad sohalar o‘rtasidagi munosabatlar hisobga olinadi. Bunda konseptual sohalarning sinonimik, antonimik, frazeologik, metaforik va diskursiv ifodalanishi qiyosiy tadqiqot uchun muhim material sifatida qaraladi. Mazkur metodologik yondashuv konseptning kognitiv-konseptual, lisoniy-semantik va lingvomadaniy jihatlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga asos bo‘ladi.

3. NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlarning qiyosiy tahlili konseptni so‘zning leksik ma’nosi bilan aynanlashtirish metodologik jihatdan cheklanganligini ko‘rsatadi. Leksik ma’no til birligining semantik xususiyatlarini ifodalasa, konsept kognitiv yondashuvlarda insonning bilim, tajriba va tasavvurlari bilan bog‘liq konseptual tuzilma sifatida talqin qilinadi. Muayyan konseptual soha turli leksik, frazeologik va diskursiv vositalar orqali ifodalanishi, bir leksema esa kontekstga qarab turli konseptual sohalarni faollashtirishi mumkin.

Masalan, nemis tilidagi *Heimat* va o‘zbek tilidagi *vatan* birliklari muayyan kontekstlarda tarjima muqobillari bo‘lsa-da, ularning semantik qamrovi to‘liq mos kelishi shart emas. *Heimat* tug‘ilib o‘sgan joy, tanish muhit va hissiy mansublikni, *vatan* esa yurt, ona zamin, tarixiy xotira va vatanparvarlik bilan bog‘liq mazmunlarni ifodalashi mumkin. Biroq ushbu xususiyatlar faqat bir tilga xos emas. Demak, tarjima muqobilligi konseptual muvofiqlikni avtomatik ravishda anglatmaydi.

Nazariy qarashlarni umumlashtirish asosida konseptual sohalarni qiyosiy o‘rganishning oltita o‘zaro bog‘liq tahliliy jihatini farqlash mumkin: tushunchaviy-semantik jihat — asosiy kategoriyal belgilar va lug‘aviy ma’nolar; obrazli-perseptiv jihat — hissiy-idrokiy, makoniy va tajribaviy tasavvurlar; aksiologik jihat — ijobiy yoki salbiy baholash va qadriyatga oid mazmun; madaniy-tarixiy jihat — tarixiy xotira, an’analar va ijtimoiy tajriba; metaforik jihat — konseptual sohalar o‘rtasidagi metaforik munosabatlar; diskursiv jihat — konseptual mazmunning turli kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo‘lishi. Mazkur jihatlar konseptning qat’iy ajratilgan tarkibiy qismlari emas, balki o‘zaro kesishuvchi tahlil yo‘nalishlari hisoblanadi.

HEIMAT/VATAN konseptual sohasining qiyosiy xususiyatlari

HEIMAT/VATAN konseptual sohalari makon, mansublik, hissiy yaqinlik va ijtimoiy identifikatsiya kategoriyalari bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi *ona Vatan, ona yurt, Vatanga muhabbat, Vatan oldidagi burch* birliklari ushbu sohaning obrazli, aksiologik va ijtimoiy mazmunini ifodalaydi. Xususan, *ona Vatan* birikmasida ona obrazi orqali hissiy yaqinlik, *Vatan oldidagi burch* ifodasida esa mas’uliyat mazmuni namoyon bo‘ladi.

Nemis tilidagi *Heimat, Heimatgefühl, Heimatort, Heimatland, heimisch* birliklari makoniy mansublik, tanish muhit va hissiy yaqinlikni ifodalashi mumkin. *Die Heimat verteidigen* kabi birikmalar esa vatanparvarlik va himoya qilish mazmuni bilan bog‘liq. Demak, ikki tilda o‘xshash semantik yo‘nalishlar mavjud bo‘lsa-da, ularning madaniy salmog‘ini aniqlash uchun *Heimat, Vaterland, Zuhause* hamda *vatan, yurt, ona zamin* birliklarining kontekstual va diskursiv qo‘llanishini qiyoslash zarur.

FAMILIE/OILA konseptual sohasining umumiy va farqli jihatlari

FAMILIE/OILA konseptual sohalari qarindoshlik, nikoh, ijtimoiy mansublik, yaqinlik va o‘zaro mas’uliyat bilan bog‘liq. Biroq oilaning tarkibi, ijtimoiy vazifalari va avlodlararo munosabatlar turli madaniy kontekstlarda farqlanishi mumkin.

O‘zbek tilidagi *oila davrasi, oila boshlig‘i, ota-ona roziligi, qarindosh-urug‘* birliklari oilaviy yaqinlik, ijtimoiy rollar va qadriy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Nemis tilidagi *Familie, Familienleben, Familienangehörige, Familienkreis, Verwandtschaft* birliklari esa oilaviy hayot, oila a’zoligi va qarindoshlik munosabatlarini aks ettiradi. Ushbu birliklar semantik jihatdan qiyoslanishi mumkin, biroq ularning asosida butun jamiyatning oilaviy qadriyatlari haqida qat’iy xulosa chiqarish uchun kengroq diskursiv dalillar talab etiladi.

LIEBE/MUHABBAT konseptual sohasining metaforik ifodalanishi

Konseptual metafora nazariyasi LIEBE/MUHABBAT kabi mavhum emotsional sohalarning obrazli ifodalanishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, MUHABBAT — OLOV / LIEBE IST FEUER metaforik modellarida emotsional holat olovning yonish, alangalanish va harorat xususiyatlari orqali konseptuallashtiriladi.

O‘zbek tilidagi *muhabbat olovi, sevgi alangasi, ishqida yonmoq* hamda nemis tilidagi *die Flamme der Liebe, die Liebe entfachen* ifodalari mazkur metaforik munosabatga misol bo‘la oladi. Bunda MUHABBAT/LIEBE maqsad soha, OLOV/FEUER esa manba soha vazifasini bajaradi. Ushbu o‘xshashliklar umumiy obrazli-konseptual yo‘nalish mavjudligini ko‘rsatsa-da, metaforalarning qo‘llanish chastotasi, uslubiy xususiyatlari va madaniy konnotatsiyalari

bir xil ekanini isbotlamaydi. Bunday farqlar korpus va diskurs materiallari asosida aniqlashtirilishi lozim.

XULOSA

Olib borilgan nazariy-qiyosiy tahlil konsept kategoriyasini tadqiq etishda kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlarning o‘zaro aloqadorligini hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvlar konseptual mazmunning turli jihatlariga e’tibor qaratishi bilan farqlansa-da, ularni qat’iy qarama-qarshi nazariyalar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas.

Kognitiv tilshunoslik konseptuallashtirish, kategoriyalash, bilimlarni tashkil etish va tajribaga asoslangan ma’no hosil qilish jarayonlarini izohlashga xizmat qiladi. Lingvokulturologik yondashuv esa til birliklarining madaniy-semantik xususiyatlari, qadriyatga oid mazmuni va muayyan lingvomadaniy hamjamiyat tajribasi bilan aloqasini yoritishga imkon beradi. F. Sharifianning madaniy-kognitiv yondashuvi mazkur masalalarni madaniy sxemalar, kategoriyalar va metaforalar doirasida tadqiq etish uchun qo‘shimcha nazariy vositalarni taqdim etadi.

Ushbu yondashuvlarning nazariy imkoniyatlarini umumlashtirish asosida konseptual sohalarni qiyosiy tadqiq etishning uch asosiy tahlil sathini farqlash mumkin:

Birinchi sath — kognitiv-konseptual tahlil. Ushbu sathda konseptual sohaning kategoriyal tuzilishi, tajribaviy asoslari, konseptual aloqalari va metaforik modellariga e’tibor qaratiladi. Bunda konseptual xususiyatlar tegishli lisoniy dalillar asosida rekonstruksiya qilinishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Ikkinchi sath — lisoniy-semantik tahlil. Mazkur sathda konseptual sohani ifodalovchi leksemalar, so‘z birikmalari, frazeologik va paremiologik birliklar, ularning semantik munosabatlari hamda kontekstual qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi.

Uchinchi sath — lingvomadaniy tahlil. Ushbu sath konseptual sohaning madaniy assotsiatsiyalari, aksiologik xususiyatlari, tarixiy-madaniy mazmuni va turli diskurslarda namoyon bo‘lishini izohlashga yo‘naltiriladi.

Mazkur uch sath konseptning qat’iy ajratilgan tarkibiy qismlari emas, balki uning lisoniy ifodalanishini kompleks o‘rganishga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq tahliliy yo‘nalishlar sifatida qaraladi. Ularning birgalikda qo‘llanishi nazariy jihatdan konseptual sohalarning semantik, kognitiv va madaniy xususiyatlarini nisbatan izchil tavsiflash imkonini beradi.

Nemis va o‘zbek tillari materiallarini qiyoslashda mazkur yondashuv muhim metodologik ahamiyatga ega. Xususan, nemis tilshunosligida qo‘llanadigan *Begriff, Konzept, Konzeptualisierung, Kategorisierung, Prototyp, Frame, Schema* va *Metapher* tushunchalarining nazariy mazmunini farqlash zarur. Chunki mazkur terminlar bir xil tadqiqot obyekti yoki tahlil darajasini ifodalamaydi. Jumladan, *Begriff* va *Konzept* ayrim ilmiy an’analarda bir-biriga yaqin qo‘llansa-da, ularning o‘zaro munosabati muayyan nazariy yondashuvga bog‘liq holda belgilanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham *konsept, tushuncha, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi, mentalitet* va *lingvomadaniy birlik* kabi terminlarning o‘zaro munosabatini metodologik

jihatdan aniqlashtirish muhimdir. Mazkur tushunchalarning semantik yaqinligi ularning ilmiy mazmuni aynan bir xil ekanini bildirmaydi.

HEIMAT/VATAN, FAMILIE/OILA va LIEBE/MUHABBAT konseptlarini qiyosiy o‘rganish ularning semantik mazmuni tarjima muqobilligi bilangina belgilanmasligini, balki lisoniy ifodalanish, obrazlilik, baholash semantikasi va lingvomadaniy xususiyatlar bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Dastlabki kuzatishlar mazkur konseptlarning nemis va o‘zbek tillaridagi mushtarak hamda o‘ziga xos jihatlarini aniqlashda kognitiv, leksik-semantik va lingvomadaniy tahlilning o‘zaro uyg‘unligini taqozo etadi. Bunday xulosalarning empirik asoslanganligini ta’minlash uchun qiyoslanayotgan tillarning turli janrlardagi matnlarini, turg‘un birikmalarini va metaforik ifodalarini tizimli tahlil qilish zarur. Shunday qilib, konseptlarni kompleks o‘rganish ularning mazmuniy tuzilishi, lisoniy voqelanishi va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, nemis va o‘zbek tillaridagi konseptual mushtaraklik hamda tafovutlarni ilmiy asosda tavsiflash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 p.
2. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 223 p.
3. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 312 p. – URL: https://doi.org/10.1017/CBO9780511614408.
4. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 400 p.
5. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 632 p.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
7. Sharifian F. (Ed.). Advances in Cultural Linguistics. – Singapore: Springer, 2017. – 745 p. – URL: https://doi.org/10.1007/978-981-10-4056-6.
8. Sharifian F. Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. – Amsterdam: John Benjamins, 2017. – URL: https://doi.org/10.1075/clscc.8.
9. Wierzbicka A. Lexicon as a Key to History, Nation, and Society. In: Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – P. 156–197. – URL: https://doi.org/10.1093/oso/9780195088359.003.0004.
10. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – URL: https://doi.org/10.1093/oso/9780195088359.001.0001.
11. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.

12. Hayotova D. Z. Linguculturological Interpretation and Study of the Concept “Vatan (Homeland)” in German and Uzbek Languages. – Indonesian Journal of Innovation Studies, 2022. – Vol. 18. – URL: https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.622.
13. Sharifian F. Globalisation and Developing Metacultural Competence in Learning English as an International Language. – Multilingual Education, 2013. – Vol. 3. – Article 7. – URL: https://doi.org/10.1186/2191-5059-3-7.
14. Kövecses Z. Language, Mind, and Culture: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 416 p.
15. Evans V. Cognitive Linguistics: A Complete Guide. 2nd ed. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2019. – URL: https://doi.org/10.1515/9781474405232.